Дониерова Фотимабону Алишер қизи	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1124
Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
Эгамова Махфурат Эсановна	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
Shohruzbek Ruziyev	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	1156
Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
Kodirova Samira Kamol qizi	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	1169
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	1175
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI	1181
Kazakova Zulayho, Saida'zamova Nilufar, Isroilov Shohruh	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	1192
Шермухамедов Акмал Комилжонович	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
Umarov Xasan Sunnatullaevich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII	1210
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	1221
Jalolov Abbasxon Ravshaxon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING AHAMIYATI	1233
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
Zararli dasturiiy ta'minotni aniqlash va tahlil qilishda neyron tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari.....	1238
Nuratdinov Xushnid Begzadovich, Erejepov Kewlimjay Kaymatdinovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA INVESTITSIIYA FAOLIYATINING ZAMONAVIIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1244
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOIYILLAR VA YONDASHUVLAR.....	1250
Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li	
ASINXRON MOTORLARNING NOSIMMETRIK REJIMLARINI NAZORAT QILISH VA BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR METODIKASINI ISHLAB CHIQISH.....	1255
Tojimurodov Dilshodbek Dilmurodjon o'g'li	



SOLIQ ORGANLARI VA SOLIQ TO'LOVCHILAR O'RTASIDAGI NIZOLARNI SUDGACHA HAL ETISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1263
Solihova Xumora Xasan qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	1269
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIV VA PASSIVLARI MUVOFIQLIGI VA UNI BOSHQARISH	1274
Saidov Doniyor Abdullayevich	
AI-BASED AUTOMATED ASSESSMENT SYSTEMS AND THEIR ROLE IN EDUCATION QUALITY MONITORING: THE CASE OF UZBEKISTAN.....	1280
Majidova Yulduz, Janayev Bunyod, Choriyev Anvar, Mamatqulov Mavlon	
MAHALLIY BYUDJETLARDA SOLIQLARNI UNDIRISHNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	1286
To'xсанov Qudratillo Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	1294
Murtazayev Olim, Norbekov Fazliddin Iskandar o'g'li	
SOLIQ NIZOLARINI MA'MURIY TARTIBDA KO'RIB CHIQLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1301
Solihova Xumora Xasan qizi	
KRIPTOAKTIVLAR VA MBRVNING MONETAR SIYOSAT TRANSMISSIYA MEXANIZMIGA TA'SIRI.....	1305
R.I. Rashidov, S.B.Eshmurodova	
"SMART TOURISM FAMILY ENTREPRENEURSHIP SYSTEM" MODELINING SINERGETIK SAMARADORLIGI VA TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI INVESTITSIYALAR BILAN TA'MINLASHDAGI IMKONIYATLARI.....	1310
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
KORPORATIV KONFLIKTLARNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1318
Xolikova Saboxat Abdulkarim qizi	
LONDON XALQARO MOLIYA MARKAZINING RIVOJLANISH OMILLARI VA RAQOBAT USTUNLIKLARI	1325
Alimardonov Elshod Dilshodovich	
XARID TURIZMI VA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: O'ZBEKISTON VA QO'SHNI DAVLATLAR MISOLIDA.....	1332
Akmal Bakhromov	
AEROTROPOLIS KONSEPSIYASI ASOSIDA SAMARQAND XALQARO AEROPORTINI MINTAQAVIY TURISTIK HUB SIFATIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1338
Alisher Suyunov	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1345
Baxriddinov Sharofiddin	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ HISOBOTINI AVTOMATIK SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1352
Boymurotov Sodiq	
ESG-РЕЙТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ КОМПАНИЙ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ. 1356	
И. Р. Бердикулова	
МОДЕЛИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В ЦЕЛЯХ ОПТИМИЗАЦИИ ОПЕРАЦИОННЫХ РАСХОДОВ ДЛЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ.....	1360
Джуманов А.А.	
FERMER XO'JALIKLARIDA YER-SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1370
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1376
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
TIJORAT BANKLARIDA OMONATLAR HAJMINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK VAHOLASH VA ISTIQBOLLI PROGNOZLASH.....	1382
Raximov Shoxrux Furqatovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1388
Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich	
MOLIYAVIY QAROR QABUL QILISHDA ZAMONAVIY USULLAR VA TEXNOLOGIYALAR.....	1393
Begalov Sherzod Maxsutaliyevich	
O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTANING AHAMIYATI.....	1400
F. Sh. Hamrayeva	



O'ZBEKISTONDA MAJBURIY SUG'URTANING AHAMIYATI

F. Sh. Hamrayeva

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiyotda sug'urta iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni, tadbirkorlikni rivojlantirishni, ko'plab tabiiy, texnogen risklardan samarali himoyani ta'minlashi, davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning muhim mexanizmi va zaruriy vositasiga aylanib bormoqda. Jahon tajribasidan shuni ko'rishimiz mumkinki, sug'urta infratuzilmalarning to'liq rivojlanishi va shakllanishi milliy iqtisodiyotning o'sishiga muhim turtki hisoblanadi. Shu sababli sug'urtani amalga oshirishda majburiy sug'urta turlarini keng joriy etish bu boradagi dastlabki qadam hisoblanadi, shuningdek, ularni joriy etishdagi muammolar yechimini taklif etish uning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: risk, sug'urta, ijtimoiy himoya, majburiy sug'urta, sug'urta nazorati.

Abstract. In the modern economy, insurance is an important and necessary tool that ensures overall economic stability and security, the development of entrepreneurship, effective protection from numerous natural, technological and other risks, and the implementation of state social policy. World experience shows that the full development of the insurance infrastructure provides an impetus for the development of the national economy. Therefore, the widespread introduction of compulsory insurance in the implementation of insurance is the first step in this direction, and the proposal to solve the problems of their implementation determines its relevance.

Keywords: risk, insurance, social protection, compulsory insurance, insurance control.

Аннотация. В современной экономике страхование становится важным механизмом и необходимым инструментом обеспечения экономической стабильности и безопасности, развития предпринимательства, эффективной защиты от многочисленных природных, техногенных и иных рисков, а также реализации социальной политики государства. Мировой опыт показывает, что полноценное развитие и формирование страховой инфраструктуры является важным фактором роста национальной экономики. В связи с этим широкое внедрение обязательных видов страхования в страховую практику является одним из первых шагов в данном направлении, а предложение решений проблем, возникающих при их внедрении, определяет актуальность данной темы.

Ключевые слова: риск, страхование, социальная защита, обязательное страхование, страховой надзор.

KIRISH

Sug'urta zamonaviy O'zbekiston moliya tizimining tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Nisbatan yosh bo'lishiga qaramay, moliyaviy munosabatlarning ushbu sohasi yildan-yilga qayta taqsimlash munosabatlari tizimida muhim o'rin tutmoqda. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida institutsional va infratuzilmaviy rivojlanish darajasining yetarli emasligi, sug'urta subyektlari o'rtasida sug'urta madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, ichki qonunchilik bazasidagi nomuvofiqliklar, uslubiy ta'minotning sustligi — bularning barchasi majburiy sug'urta tizimi orqali moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmidan to'liq foydalanishga imkon bermayapti.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitida majburiy sug'urta turlarining obyektiv zaruriyati uning muhim ijtimoiy funksiyani bajarishi, sug'urta madaniyatining rivojlanishiga qo'shadigan hissasi, sug'urta kompaniyalari faoliyati uchun barqaror moliyaviy bazani yaratishi, shuningdek, budjet mablag'larining tejalishiga qo'shadigan hissasi bilan aniqlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda sug'urta tizimining hozirgi holatida majburiy sug'urtani rivojlantirish aholining barcha xavfli guruhlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun sug'urta himoyasini tashkil etishga imkon beradi, shuningdek, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash uchun davlat budjeti xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga erishish mumkin. Ushbu jihatdan har qanday mamlakat uchun mavjud risklarning sug'urta mexanizmi bilan qamrab olinishi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta munosabatlari jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan va rivojlanib borgan,



sababi jamiyat doimo ishlab chiqarishni kengaytirish va ishchi kuchini takror ishlab chiqarishi uchun yetarli shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida ehtiyot choralarini ko'rishga majbur bo'lgan, shuningdek, zararining oldini olish imkoniyati bo'lmasa ham, yetkazilgan zararni qoplashning turli usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj sezgan. Bunday iqtisodiy munosabatlar sug'urtaning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga asos bo'lgan [1].

Majburiy sug'urtaning mohiyati shundan iboratki, jamiyatning bir vakili sifatida davlat jamiyat manfaatlariga zarar yetkazilganda qabul qilingan qonunlar asosida jabrlanuvchilarning (sug'urtalanuvchilarning) zararlarini qoplab berishni majbur qilib qo'yishida namoyon bo'ladi [2].

Sug'urtaning majburiy shakliga ehtiyoj uning katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Majburiy sug'urtaning ayrim turlari mamlakat aholisining ko'pchiligini qo'shimcha ijtimoiy himoya bilan ta'minlaydi. Masalan, ish beruvchilarning javobgarligini majburiy sug'urta qilish, buning majburiyiligi mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish barqarorligini oshirish, mehnatda yetkazilgan zararlarini qoplashga qaratilgan ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirish va tartibga solishning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi [3].

Majburiy sug'urta turlarining rivojlanishi sug'urta xizmatlari bozorining asosiy tashkil etuvchisi sifatida aholini ijtimoiy himoya qilishni qo'shimcha moliyalashtirish masalalarini hal qilishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlaydigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, majburiy sug'urta turlarining to'liq va iqtisodiy jihatdan mutanosib rivojlanishi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida sug'urta madaniyatining o'sishiga, bu esa ixtiyoriy sug'urta turlarining rivojlanishiga olib keladi [4].

Davlat muayyan obyektlarning sug'urta himoyasini nafaqat alohida sug'urtalanuvchilar, balki butun jamiyat manfaatlariga bog'liq bo'lgan taqdirda sug'urtaning majburiy shakllarini belgilaydi. Majburiy sug'urta tegishli qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi, unda sug'urta qilinadigan obyektlar ro'yxati, sug'urta javobgarligining miqdori, sug'urta qoplamasining miqdori, jarayonda ishtirok etuvchilarning huquq va majburiyatlari, sug'urta tarif stavkalari ko'zda tutiladi [5].

Har qanday davlat o'zining budjetidan xavflarning oldini olishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishda majburiy sug'urta turlarini joriy etadi. Shuningdek, majburiy sug'urta turlarini joriy etish orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarda sug'urta madaniyati shakllanib boradi. Bu borada majburiy sug'urta turlarining o'rni beqiyosdir [6].

Majburiy sug'urta bugungi kunda moliyaviy rivojlanayotgan bozorlarda sug'urta bozorini rivojlantirish uchun katalizator vazifasini bajarib kelmoqda. Sug'urta mexanizmi mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim tizimidir, sababi u davlat xarajatlarini, shu jumladan, tabiiy va boshqa ofatlar qurbonlariga yetkazilgan zararlarini qoplash nuqtai nazaridan davlat budjetiga tushadigan og'irlikni pasaytiradi [7].

Majburiy sug'urtalashning asosiy iqtisodiy foydasi tabiiy ofatlarning kutilmaganda yuz berishi sharoitida budjet mablag'larini sarflamasdan mamlakat bo'ylab ko'plab obyektlar va shaxslarga sug'urta qoplamasini ta'minlashdan iborat [8].

Ko'pchilik MDH mamlakatlari sug'urta bozorida majburiy sug'urta mukofotlari umumiy sug'urta mukofotlari tarkibida kam salmoqni egallaydi. Faqat Belarus Respublikasida majburiy sug'urta turlari sug'urta bozorining asosini tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida bu ikkala sug'urta turi nisbatan muvozanatlashgan. O'zbekiston, Ukraina va Ozarbayjon sug'urta bozorlarida majburiy sug'urta sohasi kam rivojlangan [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda majburiy sug'urtaning iqtisodiy ahamiyati, uning ijtimoiy himoya tizimidagi o'rni hamda sug'urta bozorini rivojlantirishdagi ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va sug'urta bozori faoliyatiga oid mavjud ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, majburiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berishda taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Maqolada majburiy sug'urta turlarining afzalliklari, ularni joriy etishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida majburiy sug'urtaning mavjudligi sug'urta xizmatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib borishida eng muhim omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan quyidagilar belgilab berilgan: yangi turdagi sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlar hisobiga ularning hajmini



kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish [10].

Majburiy sug'urta tizimini hozirgi kunda yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta mukofotlari orqali sug'urta fondlarini shakllantirishni va keyinchalik sug'urta hodisalari natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun foydalanishni nazarda tutadigan kafolatlar va inqirozga qarshi choralar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ko'rib chiqish kerak. Bunda sug'urtalashning roli va ahamiyati quyidagi asosiy obyektiv sabablarga ko'ra ortib boradi:

- har yili o'z-o'zidan paydo bo'ladigan va texnogen xususiyatga ega bo'lgan turli xil favqulodda vaziyatlarning yuz berish chastotasi va ular oqibatlarining jiddiyligi oshib bormoqda;

- ilmiy va texnik yutuqlarning o'sishi tufayli risklar soni ortib bormoqda, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarish va minimallashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan;

- iqtisodiyotning bozor modellari va xo'jalik munosabatlarining murakkabligi moliya bozorida yangi tadbirkorlik risklarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda;

- yildan-yilga aholining ijtimoiy himoya bilan bog'liq iqtisodiy muammolari oshib bormoqda.

Hozirgi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan O'zbekiston uchun majburiy sug'urta tizimiga bo'lgan obyektiv ehtiyoj quyidagi omillar bilan bog'liqdir:

- favqulodda holatlar yuzaga kelganda davlat yordami imkoniyatlari ijtimoiy dasturlar uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hajmi bilan chegaralanishi mumkin.

- ayrim ishlab chiqarish tarmoqlarida asosiy vositalarni modernizatsiya qilish ehtiyoji mavjud, bu esa o'z navbatida xavfsiz mehnat jarayonini va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kafolatini bermaydi.

Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot va ijtimoiy soha uchun majburiy sug'urta tizimining foydaliligi juda yuqori.

Birinchidan, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy resurslari ma'lum bir bosqichda kuchli investitsiya vositasiga aylanadi.

Ikkinchidan, sug'urta bozorining milliy iqtisodiyot tarmog'i sifatida rivojlanishi va o'sishi bilan sug'urta kompaniyalari ko'plab yangi ish o'rinlarini tashkil etuvchilarga aylanib boradi. Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini oshirib borishi esa, shubhasiz, ijtimoiy sohani kuchaytiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

Uchinchidan, tadbirkorlik risklarini sug'urtalash orqali korxonalariga yetkazilgan zararlar kamaytiriladi, shu bilan birga, majburiy sug'urta ilmiy-texnik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, sug'urta kompaniyalari yirik soliq to'lovchilardir va ularning muvaffaqiyatli faoliyati turli darajadagi budjetlarning daromadlar bazasini oshiradi, shu bilan birga, ularning xarajatlar qismiga tushadigan og'irlikni kamaytiradi, aholini ijtimoiy himoya qiladi, favqulodda holatlarda zararlangan obyektlarni tiklashni moliyalashtiradi.

Beshinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mamlakat aholisi ijtimoiy himoyalanganligini oshirishda, jumladan, tibbiy sug'urta va pensiya sug'urtasi yo'nalishlarida to'g'ri tashkil etilgan sug'urta mexanizmi masalalarning ijobiy hal qilinishini ta'minlashning samarali vositasiga aylanib boradi.

Sug'urta mukofotlarining o'sishiga ta'sir etuvchi ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlar mavjud, bular o'rtacha ish haqi darajasi, iste'mol savati, davlat yalpi ichki mahsulotining o'sishi va boshqalardir. Rivojlangan Yevropa mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatlar tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishda normativ-huquqiy tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday choralarga sohani rivojlantirish va yanada jonlantirish uchun majburiy sug'urta turlarini joriy etish kiradi.

Majburiy sug'urta tizimi orqali davlat jamiyat rivojlanishining ijtimoiy muammolarini hal etishda ishtirok etadi. Bu davlatning hozirgi iqtisodiy holati bilan belgilanadi va bozor sharoitida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, majburiy sug'urta turlari jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishda davlat tomonidan vaqtinchalik chora sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Shuningdek, hozirgi kunda 2019–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan majburiy sug'urtaning yangi turlarini, shu jumladan, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ko'chmas mulk va qishloq xo'jaligi xavflarini sug'urtalash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda [11].

Hozirgi bosqichda majburiy sug'urta turlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- sug'urta xizmatlari bozorida majburiy sug'urtalashning qonuniy bazasini shakllantirish;

- majburiy sug'urtalashning uslubiyotini rivojlantirish;

- sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning samarali mexanizmlarini yaratish;

- xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda milliy sug'urta tizimining xalqaro sug'urta bozoriga integratsiyasini ta'minlash.

Majburiy sug'urtaning har qanday turini joriy etishda sug'urta zaxiralarini shakllantirish tamoyiliga asoslanish kerak, bunda sug'urtalanuvchilar hisobidan shakllangan sug'urta fondi faqat sug'urta hodisasi



sodir bo'lgan shaxslarga zararlarni qoplash uchun ishlatilishi qat'iy belgilanishi, shuningdek, bu mablag'lar sug'urtalovchilarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga sarflanishi mumkin emas. Majburiy sug'urta turlari to'g'risidagi qonun loyihalarini ishlab chiqayotganda qonun hujjatlarini chuqur moliyaviy va iqtisodiy tahlil qilgan holda qabul qilish, sug'urta himoyasini taqdim qilishdagi muammolarni o'rganish va hal qilish imkoniyatlarini to'liq ko'rib chiqish lozim. Bundan tashqari, majburiy sug'urtalash to'g'risidagi qonunchilikka majburiy sug'urta qilishning nazariy asoslarini kiritish kerak. Bunda majburiy sug'urta turining ko'lami va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- majburiy sug'urtaning asosiy shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi;
- majburiylik — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi;
- sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta kompaniyalari va boshqa shaxslar o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishi zaruriyati;
- jabrlanuvchilarning manfaatlari — ularga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta to'lovlarini olish kafolati.

1-jadval

Majburiy sug'urtani rivojlantirish muammolari tasnifi¹

Tashqi muammolari	Iqtisodiy	inflyatsiya
		davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi
		sug'urtalanuvchi moliyaviy qobiliyatining pastligi
	Huquqiy	Sug'urta faoliyatini qonunchilik darajasida tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi
Sug'urta bozorining to'liq shakllanishi uchun qonunchilik va uslubiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi		
Sug'urta xizmatlari sohasidagi soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish zarurati		
Siyosiy	Makroiqtisodiy va institutsional omillarning ta'siri	
Ichki muammolar	Davlat miqyosida	Sug'urta kompaniyalari faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tartibga solish va nazorat vositalari o'rtasidagi muvozanatning yetarli emasligi
		Nazorat funksiyalarining Moliya vazirligi doirasida cheklanganligi va mutaxassislarning yetishmasligi
		Sug'urta tizimini boshqarishda markazlashuv darajasining yuqoriligi
		Sug'urtalanuvchi va sug'urtalangan shaxslarning manfaatlari nazorat organlari uchun ustunligini ta'minlashi
		Milliy sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobat sharoitlariga moslashtirish
	Sug'urta kompaniyasi miqyosida	Sug'urta rezervlarini shakllantirish va joylashtirish
		Sug'urta kompaniyalari faoliyatida noxolis amaliyotlar yuzaga kelish xavfi
		Sug'urta bozorida raqobat muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi
		Mijozlar bazasini kengaytirish borasidagi imkoniyatlarning cheklanganligi
	Sug'urtalanuvchi miqyosida	Sug'urta bozorining axborot ochiqligining yetarli emasligi va qonunchilik borasida sug'urtalanuvchilarda ma'lumotlarning yetarli emasligi
		Sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonch darajasining yetarli emasligi
		Sug'urtalanuvchilar tomonidan sug'urta shartlaridan noto'g'ri foydalanish xavfi
	Aynan majburiy sug'urta bo'yicha muammolar	Majburiy sug'urta bo'yicha qonunchilik hujjatlarining to'liq shakllantirilmaganligi
Majburiy sug'urtani tarmoq idoralari tashabbusi asosida joriy etilganligi (qonun hujjatlar bilan)		
Sug'urta mukofoti va sug'urta qoplamasi o'rtasidagi asoslanmagan nisbatlar		
Hali-hanuz majburiylik belgilangan sug'urta turlari bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'liq qabul qilinmaganligi		

Shuningdek, majburiy sug'urtani quyidagi mezonlar bilan tasniflash maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

1 Tahlillar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



- sug'urta turlariga muvofiq: majburiy tijorat sug'urtasi; majburiy davlat sug'urtasi;
- sug'urta fondini tashkil etishga qarab: ijtimoiy sug'urta fondlari; sug'urta kompaniyalarining sug'urta fondlari;
- sug'urta mahsulotlarining shakllariga qarab: ommaviy; ma'lum toifa uchun; individual sug'urta mahsulotlari;
- sug'urtalangan shaxslar toifasiga qarab: davlat xizmatida bo'lgan shaxslar uchun; virologiya, tibbiy, psixiatrik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish sohasidagi tibbiy va boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek, turli xil qutqaruv operatsiyalarini bajaradigan shaxslar uchun;
- o'rnatilgan sug'urta tariflariga muvofiq: qat'iy belgilangan tarif; egiluvchan tarif; ko'paytiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadigan tarif.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy sug'urta bozorida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan majburiy sug'urtani tahlil qilish va xususiyatlarini o'rgangan holda quyidagi kamchiliklarni aniqlash imkonini berdi:

- sug'urta kompaniyalari faoliyatidagi hududiy nomutanosiblik;
- davlat nazorati va tartibga solish mexanizmlarining yanada takomillashtirishga muhtojligi;
- hududiy sug'urta kompaniyalari faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Majburiy sug'urtani rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- aholi manfaatlariga maksimal darajada javob beradigan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchi oshishiga olib keladigan maksimal darajada oshkoralik siyosatini olib borish;
- majburiy davlat sug'urtasi ustidan har tomonlama nazoratni ta'minlash, bunda nazorat ham ichki, ham tashqi bo'lishi kerak;
- qonunchilik bazasini takomillashtirish, soliq imtiyozlarini berish va tartib-taomillarni soddalashtirish, sug'urtaning ustuvor turlarini hisobga olgan holda rivojlantirish;
- majburiy sug'urtalashning axborot almashish kanallarini takomillashtirish, sug'urtalanuvchilar va jabrlanganlarning yagona bazasini yaratish, bu sug'urta kompaniyalari o'rtasida ma'lumot almashishni tezlashtiradi va sug'urta shartlaridan noto'g'ri foydalanish holatlarini aniqlash imkonini beradi;
- mavjud va yangi ishlab chiqarilayotgan sug'urta mahsulotlarini reklama qilish ishlarini yaxshilash, sug'urta dasturlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni keng targ'ib qilib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Райхер В.К. Общественно-исторические типы страхования. — М.; Л.: Издательство АН СССР, 1947. — С. 5–6.
2. Емельянов А.О. О понятии обязательного страхования // Хозяйство и право. — 1997. — № 12. — С. 37–43.
3. Алексеева Е.В. Основные тенденции на рынке обязательного страхования // Актуальные проблемы регионального развития: межвузовский сборник научных трудов / под ред. Т.Д. Дегтярёвой. — Вып. 4. — Оренбург: ИПК ГОУ ОГУ, 2008. — С. 164–168.
4. Ширшов В.Ю. Теоретические аспекты сущности обязательного страхования // Приложение к журналу «Экономические науки». — 2006. — № 1. — 0,65 п. л.
5. Шахов В.В. Страхование: учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. — С. 41.
6. Buzatu C. The Influence of Behavioral Factors on Insurance Decision: A Romanian Approach // Procedia Economics and Finance. — 2013. — Vol. 6. — P. 31–40.
7. Огородова М.В., Курылева О.И., Куль Т.Н. О современных проблемах системы обязательного страхования в РФ // Вестник Мининского университета. — 2016. — № 1. — С. 1–7.
8. Hamrayeva F.Sh. The Role of Mandatory Insurance in the Modern Insurance System // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. — 2020. — Vol. 24, Issue 04. — P. 3903–3908.
9. Абдурахмонов И.Х. Теория и практика страхования: учебник. — Т.: Iqtisod-Moliya, 2019. — С. 353–354.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. — 2017-yil 7-fevral. — URL: <https://lex.uz/docs/-3107036>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son Qarori. — 2019-yil 2-avgust. — URL: <https://lex.uz/docs/-4459802>
12. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Sug'urta bozori bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. — URL: <https://napp.uz/oz/pages/sug-urta-bozori>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100